

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
 Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
 Seyhan Tanju (Turkiya)
 Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
 Benedek Peri (Vengriya)
 Vahit Turk (Turkiya)
 Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
 Eunkyung Oh (Koreya)
 Nazef Shahrani (AQSh)
 Boqijon To'xliyev
 Muhammadjon Imomnazarov
 Bilol Yujel (Turkiya)
 Qosimjon Sodiqov
 Zulxumor Xolmanova
 Mustafa O'ner (Turkiya)
 Nurboy Jabborov
 G'aybulla Boboyorov
 Kimura Satoru (Yaponiya)
 Imran Ay (Turkiya)
 Aftondil Erkinov
 Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
 Rashid Zohidov
 Otabek Jo'raboyev
 Bulent Bayram (Turkiya)
 Qo'ldosh Pardayev
 Nodirbek Jo'raqo'ziyev
 Oysara Madaliyeva
 Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Oysara Madaliyeva**

Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi tarixiga
 nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya"
 qo'lyozmalari asosida) 4

Furqat To'xtamuratov

"Gulshani jovid" qo'lyozmalari tadqiqi 40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari
 talqinida 57

ADABIYOTSHUNOSLIK**Tanju Seyhan**

Ali Shir Nevâ'î'nin *Hired* Redifli 4 Gazeli Üzerine
 Görüşler ve Hired Kavramı 72

Kemal Yavuz Ataman

Nevâ'î Düşüncesinde Cemiyetin İmarı ve
 Nizamı 102

Rıdvan Öztürk

Afganistanlı Şair Âlim Lebib'in Nevalî Şiirlerine
 Yazdığı Nazire Gazeller ile Tahmislerin
 Dilbilimsel Özellikleri 118

LINGVISTIKA**Samixon Ashirboyev**

O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida 131

Baxtiyor Abdushukurov

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika 143

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLGY****Oysara Madalieva**

Insights Into the History Of 'Ali Shīr Navā'ī's
Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts
Divāni jadīd or *Nawādir al-nihāya*) 4

Furqat Tukhtamuratov

Studying the manuscripts of "Gulshani Javid" 40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation
of Iranian Navoi studies 57

LITERATURE**Tanju Seyhan**

Opinions on Ali Şir Nevâî's 4 Ghazes with
Hired Redif and the Concept of Hired 72

Kemal Yavuz Ataman

Construction and Order of the Society in Nevâî
Thought 102

Rıdvan Öztürk

Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals
and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim
Labib to Nevaî Poems 118

LINGUISTICS**Samikhan Ashirbaev**

On the way to creating the Uzbek national
transcription 131

Bakhtiyar Abdushukurov

Socio-political vocabulary in the epitaph of
Kul-tigin 143

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika

Baxtiyor Abdushukurov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Kul tigin bitigtoshida ijtimoiy tuzum, jamiyat a'zolarining mehnat jarayonlar, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlar, jamiyat ishlariga faol aralashuvi, xalqaro aloqalar, harbiy yurishlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklar semantikasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada Kul tigin bitigtoshida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar Turfon matnlari, "Oltun yoruq", "Irq bitigi" yodnomalari, eski turkiy til ("Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit turk", "Hibat ul-haqoyiq", "Qisasi Rabg'uziy"), eski o'zbek adabiy tili manbalari (Alisher Navoiy asarlari, "Boburnoma", "Shajarayi turk") hamda hozirgi turkiy tillardagi siyosiy atamalar bilan qiyosiy o'rganiladi. Natijada, bu terminlarning davrlar o'tishi bilan rivojlanishi, o'zgarishi va zamonaviy adabiy adabiy tilga ko'chishi, faol qo'llangan leksema turli omillar bois arxaiklashib qolishi, o'rnini boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga bo'shatib berishi singari masalalarga oydinlik kiritiladi.

Kalit so'zlar: *til tarixi, turkiy tillar, run bitiklari, leksik qatlam, Kul tigin, arxaik unsurlar, Turfon matnlari, moniy yozuv yodgorliklari, yozma manbalar, ichki omil, ekstralingvistik omil, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili.*

Kirish

Qadimda til va jamiyatda yuzaga kelgan o'ziga xos o'zgarishlar, yangiliklar o'sha davr yozma manbalarida aks etgan. Shu nuqtayi nazardan, til leksikasi tarixini o'rganish, bir tomondan, har bir so'zning tadrijiy taraqqiyot yo'llarini ochib bersa, ikkinchidan, u tilning ayrim davrlardagi so'z boyligini va muayyan fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini yoritishga yordam beradi. Binobarin, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari turkiy tillarning tarixiy rivojlanish bosqichiga oid muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan namunalaridan

¹ Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: abdashukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

Iqtibos uchun: Abdushukurov, B. B. 2024. "Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika". *Oltin bitiglar* 1: 143 – 158.

biri Kul tigin bitiktoshidir. U 732-yilda Eltarish xoqonning kichik o'g'li Kul tigin sharafiga uning akasi Bilga xoqon tomonidan qo'yilgan. Ushbu yodnomada bir qator ijtimoiy-siyosiy terminlar mavjud bo'lib, ular ma'lum bir tarixiy formatsiyani belgilab beruvchi tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy, diniy kabi bosh omillar ta'sirida shakllangan.

Ijtimoiy-siyosiy leksika – qo'llanish sohasi, uslubiy belgisi, kelib chiqishi kabi turli jihatlari ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi voqealarni o'zida aks ettirgan lug'at tarkibining o'zgaruvchan guruhidir. U jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy faoliyatlar jarayonida ijtimoiy guruhlar, etnik va ijtimoiy qatlamlar, sinflar, millatlar, xalqlar, davlatlar, mamlakatlar o'rtasida vujudga kelgan xilma-xil aloqalar va munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklar yig'indisidan tashkil topgan.

Kul tigin bitigtoshida ijtimoiy tuzum, jamiyat a'zolarining mehnat jarayonlar, ularning o'zaro bir-birlari bilan munosabatlar, jamiyat ishlariga faol aralashuvi, xalqaro aloqalar, harbiy yurishlar natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy leksikani quyidagi tematik guruhga ajratish mumkin:

1) **ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi terminlar:** baliq – «shahar», el – «el», «davlat», bodun – «xalq»;

2) **ma'muriy-siyosiy tartib tushunchasini bildiruvchi leksemalar:** ordu – «saroy», tamga – «tamg'a», törü – «rasm-rusum»;

3) **mansab-martaba va unvonni bildiruvchi leksemalar:** qağan – «podsho», beg – «bek», buyruq – «vazir», tarqat – «tarxon»;

4) **mulk egalari va oddiy tabaqa vakillarini anglatuvchi so'zlar:** bay – «boy», čigān – «kambag'al», qul – «xizmatkor», küñ – «joriya».

Kul tigin yodnomasida shahar **balīq** deb yuritilgan: *kū äsidip balīqdaqī tağmīqmīs tağdaqī inmis* – ovozani eshitib, shahardagi toqqa chiqibdi, tog'dagi pastga tushibdi [KTb, 12]. Shuningdek, kalima bitigtoshda joy nomi tarkibida ham kelgan: Äñ ilik Toğu baliqda sünüşdimiz – eng avval To'g'u baliqda jang qildik (KTb, 44). Termin Eltarish xoqonning maslahatchisi, sarkarda To'nyuquq nomiga qo'yilgan bitigtoshda, Moniy manbalari, Turfon matnlari hamda X asrga oid "Oltun yoruq" [DTS, 80] asarida ayni shakl va mazmunda aks etgan: üç ottuz baliq sīdī – yigirma uch shahar mag'lub bo'ldi [KTb, 19]. Mahmud Koshg'ariy ushbu so'zning izohi borasida shunday yozadi: *balīq – johiliya davridagi turklar va uyg'urlar tilida shahar. Uyg'urlarning eng katta shaharlariga Beš*

balıq deyilishi shundandir. *Beş balıq* - besh shahar demakdir. Uyg'urlar boshqa bir shaharlariga **Yanı balıq** - yangi shahar deyдилar [MK, I, 360]. "O'g'uznoma" dostonida **baluq** fonetik varianti qo'llangan [DTS, 81]. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida *Besh baliq, Xonbaliq* toponimlari tarkibida uchraydi [SHT, 33; 58]. Kezi kelganda aytish kerakki, Kul tigin bitigida tekshirilayotgan so'zning **ulus** ma'nodoshi ham mavjud: *Quriya kün batsiqdaqı soğd bärčäkär Buqaraq ulus bodunta* - janubda kunbotardagi Sug'd, Barchakar, Buqaraq ulusi (shahri) va xalqidan [KTb, 52].

Turfonda topilgan obidalarda bu so'zning **känd** [DTS, 290] sinonimi kuzatiladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, qadimgi turkiy tilda *känd* leksemasi *balıq* kalimasi bilan oldiniga ma'nodosh sifatida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik, to'g'rirog'i, XII-XIII asrlarga kelib uning o'rnini butunlay egallagan. E.Sevortyanning "Turkiy tillar etimologik lug'ati"da *balıq* kalimasining "loy" ma'nosini anglatgan **bal** so'zidan hosil bo'lgani haqidagi mulohaza taqdim etiladi [ESS, II, 99].

*Känd*ning qaysi tilga oidligi xususida turli fikrlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda uning sug'd tiliga mansubligi qayd etiladi [Древнетюркский словарь 1969, 290; O'TIL 2006, II, 353; Дадабаев 1991; Қораев 2005, 36]. Mahmud Koshg'ariy esa bu haqda shunday yozadi: *Butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Taşkänd - Šaš, Özkänd, Tünkänd nomlarining hammasi turkchadir. Känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharni qurdilar va shunday nom qo'yдилar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan* [III, 164]. Qayd etilgan ma'lumotlar Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, keyinchalik bu yerlarda forsiyzabonlar nufuzining ham oshganligi, joy nomlarining esa forsha atab ketilganidan dalolat beradi [Содиқов 2006, 46].

Kul tigin yodnomasida **äl** so'zi "jamo'a, xalq", "davlat" ma'nolarida uchraydi: *Qağānīn anta ölürtimiz älin altīmiz* - xoqonini o'shanda o'ldirdik, elini oldik; ällig bodun ärtim, älim amtī qanī - davlatli xalq edim, davlatim endi qani? [KTb, 9]. Shuningdek, ushbu so'z bitigtoshda **ällädük** (qurilgan davlat) kalimasi hamda **Äl bilgä qatun** (Kul tigin va Bilga xoqonning onasining ismi"; KTb, 11) antroponimining shakllanishida zamin vazifasini o'tagan: *türük bodun ällädük älin içğanu idmīs* - turk xalqi ushlab turgan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan (KTb, 6). Akademik Alibek Rustamovning

ta'kidicha, ällädük so'zi äl (davlat) + *lä* (la) + *dük* (gan)dan iborat bo'lib, aniq ma'nosi "davlat qilingan" dir. Älindagi -n tushum kelishigi qo'shimchasi, -i egalik affiksidi. Ällädük älin iborasida ishtiqoq san'ati bor [Рустамий 2022, 147].

Äl atamasi Tonyuquq bitigtoshida "xalq", "Irq bitig"da "qabilalar uyushmasi" semalarida kelgan [DTS, 168]. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida "xalq" ma'nosini ifodalagan **el bodun, el kün, el kün bodun** juft so'zlari tarkibida kalimaning el fonetik varianti qo'llangan [DTS, 168]. Mahmud Koshg'ariy *el* leksemasiga "mamlakat, viloyat", "kelishuv, yarashuv": *iki beg birlä el boldi* – ikki bek bir-biri bilan yarashdi [MK, I, 83]; "hokimiyat" [MK, I, 83], "shahar" semalarini yuklagan: *el qaldı törü qalmas* – shahar (unitilar) tashlanar, rasm-rusum tashlanmas. Bu maqol odam urf-odatga qarab ish qilishiga undab aytiladi [MK, II, 32]. Atama "Qisasi Rabg'uziy" asarida "el, xalq" [QR, 40r1], "davlat" [QR, 58r18], "bir qabila, qavmga mansub odamlar" [QR, 63v16], **el kün** juft so'zi esa "xalq" [QR, 63v3] ma'nolarini anglatgan. Tahlil qilinayotgan kalima eski turkiy til davri, ya'ni XI–XIV asrlarga kelib ma'no kengayishiga uchragan bo'lsa-da, Alisher Navoiy asarlarida uning "xalq, odamlar", "askar, lashkar" ma'nolariga guvoh bo'ldik [ANATIL, III, 562]. Bugun adabiy tilimizda "odamlar, xalq", "bir yurtga, qabilaga mansub kishilar", "mamlakat" semalari istifoda etiladi. So'zning "Devon"da kelgan "kelishuv, yarashuv" ma'nosi hozirda "do'st bo'lmoq, chiqishmoq" semasiga o'zgargan: *Tomchi sel bo'lmas, Dushman el bo'lmas* [O'TIL, V, 8-29]. Eski o'zbek tilidagi "askar, lashkar" ma'nosi esa iste'moldan chiqqan.

Kul tiginda **bodun** termini ham "oddiy xalq", "etnik jihatdan tarixiy birlik, muayyan xalq" ma'nosini bergan: *Tüük bāklār bodun bunī äsidiñ* – turk beklari, xalqi, buni eshiting [KTb, 10]; *Toqquz oğuz bodun kāntü bodunim ārti* - To'qqiz o'g'uz xalqi o'z xalqim edi [KTb, 44]. Turfon matnlarida "aholi", "odamlar" semalarida aks etgan. Ushbu atama "Oltun yoruq" yodgorligida **bodun buqun, bodun qara** juft so'zlari tarkibida kelib "aholi", "el, xalq" ma'nolarini ifodalagan [DTS, 108]. "Devonu lug'otit turk" asarida **bodun** etnonimi "xalq" ma'nosida ishlatilgan [MK, I, 170]. Uning **bozun** varianti "el-yurt, olam", "jamoa" [MK, III, 88], chigillar tilida "xalq, omma" [MK, I, 379; 433] ma'nolarini, z harfini y undoshiga almashtiradiganlar tilida **boyun** fonetik shakli "jamoa" semasini bildirgan:

*Körklüg tonuğ özünä,
Tatliğ aşığ azınqa.
Tutğıl qonuq ağırliğ,*

Yazsun yaviñ bozunqa – Chiroyli to'ningni o'zing kiy, shirin taomlar -ingni boshqalarga tut, mehmondo'st bo'l, toki shuhrating olam (el-yurt)ga [MK, I, 80]. XIII asr oxiri – XIV asr birinchi yarmida yashagan Nosiruddin Rabg'uziy *bozun* so'zidan "qavm" [QR, 58v21], "xalq" [QR, 32r17], "odamlar" [QR, 58r19] kabi semalarni ochib berishda foydalangan. Mazkur atama keyingi davr manbalarida qayd etilmasa-da, *bodun* bugungi kunda **Budunov, Budunova, Bodunov, Bodunova** singari ruscha familiyalar asosida saqlanib qolgan. *Bodun-bozun-boyunning* kelib chiqishi xususida shuni aytish mumkinki, etnonim To'nyuquq va Mo'yun chur yodnomalarida "qabila, urug'" ma'nosini anglatgan **bod** so'zidan yasalgan [DTS, 107].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida "xon qarorgohi, saroy" [DTS, 370] ma'nosidagi **ordu** atamasi birichi bor Kul tigin bitigtoshida qayd etilgan: *oğuz yağī orduğ basdı* – o'g'uz dushman o'rdani bosdi. Ko'k turk xatida yaxlit kitob holida saqlangan "Irq bitig"ida ham zikr etilgan ma'no istifoda qilingan [DTS, 370]. Mahmud Koshg'ariy lug'atida bu so'zning "xon qarorgohi, saroy" [MK, I, 145], "shahar" semalari borligi ko'rsatib o'tilgan: *beg bir erig ordulandī* – bek bir yerni o'ziga shahar qildirdi [MK, I, 291]. Shu bilan birga, "Devon"da uning toponim va antroponim sifatida qo'llanishi ham tilga olingan. Ya'ni: *ordu* – Balasog'un yaqinidagi bir shahar; *Ordu känd* – Qashqar; *ordu başī* – shohlar xizmatidagilarning ismi [MK, I, 145]. Eski o'zbek tilida mazkur kalima qarorgoh, qo'shin, askar turadigan lagerga nisbatan qo'llangan [ANATIL, III, 611]. "Boburnoma" asarida "xon qarorgohi, saroy", "qo'shin tushgan joy, lager", "shahar", "joy nomi", "kishi ismi" kabi semalarda kelgan [BN, 73, 79, 98, 106, 335]. Professor Q. Sodiqovning e'tiroficha, *ordu* so'zi bugungi kunda ayrim otlarda uchrab turadi. Jumladan, hozirda Pokistonning davlat tili bo'lgan *urdu tili* eski o'zbek tilidagi *ordu* kalimasidandir. Bu atama boburiylar zamonida "o'rda tili, saroy tili" degan ma'noni anglatib, keyinchalik butun bir xalqning yozma adabiy tiliga aylangan. Mirzo G'olib ana shu tilda ijod qilgan. Yoki Toshkent shahrining qoq o'rtasida *O'rda* degan joy bor. Qachonlardir bu yerda xon o'rdasi joylashgan edi, *O'rda* oti o'shandan qolgan [Содиқов 2020, 127].

Professor Sh. Rahmatullayev fikricha, *Ordu-orda* qadimgi turkiy tilda "tepaga harakatlan" ma'nosini anglatgan *or-* fe'li bilan *-(u)t* orttirma daraja qo'shimchasi va *-u* affiksidan hosil bo'lgan [ESTYa, I, 432], keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan; *t* undoshi *r* undoshining ta'sirida jaranglisiga,

soʻz oxiridagi *u* unlisi ä unlisiga almashgan: (*or-* = *ut* = *orut*) + *u* = *orutu* > *ortu* > *ordu* > *ordä*. [OʻTEL, I, 486]. Bizning mulohazamizga koʻra atama “tepalik” maʼnosini bergan qadimgi *or* soʻzidan yuzaga kelgan, yaʼni balandlikka qurilgan qarorgoh.

Tamga soʻzi rus tilida “belgi”, “muhr”, “savdo boji” maʼnolarini ifodalaydi. XIII asrda rus tiliga oʻzlashgan **tamgʻa** atamasi diplomatik aloqalarda faol qoʻllangan. Mahmud Koshgʻariy lugʻatida shoh va boshqalarning tamgʻasi, muhri sifatida izohlangan [DLT, I, 400]. Turfon matnlarida bu soʻz “muhr”, “belgi” maʼnolarida uchraydi [DTS, 530]. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da leksemaning quyidagi semalari keltirib oʻtilgan: “narsa, mol, mahsulot va shu kabilarni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishlilikini koʻrsatish uchun qoʻyiladigan, bosiladigan belgi”; “qadimda mahbuslarning tanasiga belgi qoʻyish, bosish uchun qizdirib ishlatilgan asbob va shu asbobni bosishdan hosil boʻladigan belgi, iz”; “ot, mol kabilarning tanasiga yoki tana aʼzolaridan biriga belgi bosish uchun qizdirib ishlatiladigan asbob va shu asbobni bosishdan qoladigan belgi, iz”; “ochish, buzishga qarshi qoʻyiladigan belgili narsa, surgʻuch”; “gerb”; *KOʻCHMA* “nimadandir qolgan, uning belgisi boʻlgan narsa, asar, iz”; *KOʻCHMA* “qilmish, xatti-harakatga koʻra taqilgan yorliq, belgi [OʻTIL, III, 706]. Istiloh “bogʻla-, yopishtir-” maʼnosidagi **taq-** feʼlidan **-ma** qoʻshimchasi bilan yasalgan [OʻTEL, I, 320].

Kul tigin bitigtoshi va “Qutadgʻu bilig” asarida [DTS, 530] oʻrganilayotgan soʻz yasalgan **tamgʻači** termini kuzatiladi. U alohida saroy lavozimlaridan boʻlib, “tamgʻani qoʻriqllovchi shaxs, muhrdor” maʼnosini anglatadi: *Ogʻuz Bilgā tamgʻači kāliti* -Oʻgʻuz Bilga tamgʻachi keldi [KTb, 53].

Rus tilidagi “boj olinadigan joy, idora, post” maʼnosini bildiruvchi **tamojnya** soʻzi tarkibida ham **tamgʻa** asosi yotadi. Bugungi kunda tilimizga “bojxona” tariqasida oʻgirilayotgan ushbu leksema qadimiy tarixga ega boʻlib, uning shakllanishi turk xoqonligi davriga borib taqaladi. Turk xoqonligi bosib olgan hudud mollarini oʻz mamlakatlariga kirgizar ekan, oʻzga davlatdan keltirilgan barcha xomashyoga oʻzlarining muhri, tamgʻasini bosishgan. Bu ishni chegarada amalga oshirgan. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan “tamojnya”ning vazifasi ham mamlakatlar oʻrtasidagi tovar-mol oʻtkazmalari bilan bogʻliq.

Törü leksemasi Kul tigin yodnomasida “rasm-rusum”, “tartib-qoida”, “hokimiyat” semalarini ifodalagan: *...türük bodunin älin törüsin tuta bärmis* – turk xalqining davlatini, rasm-rusumini tutib turgan [lar] [KTb, 1]; *...ačum apam törüsinčä yaratmīs* – ota-

bobolarim qonun-qoidalarini bo'yicha tashkil qilibdi [KTb, 13]; ...*qağan ālin törüsün anča qazğantī* – xoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qozondi [KTb, 31]. Bilga hoqon bitigtoshi, Turfon matnlari va «Oltun yoruq» yodgorligida «urf-odat», «tartib-qoida», «to'y bazmi» ma'nolarida kelgan: *Türgäs qağanın qızın ärtänü uluğ törün oğlıma alıp bārtım* – Turgash xoqonning qizini katta to'y qilib og'lima olib berdim [DTS, 581]. Yusuf Xos Hojib «qonun-qoida» ma'nosini atamaning **törä** varianti hamda **törä toqa**, **törü toqa** so'zlariga yuklagan [DTS, 580]. «Devonu lug'otit turk»da *törü* «rasm, odat», «insof, adolat» semalarini anglatgan: *äl qalip törü qalmas* – mamlakat tashlanadi-yu, odat tashlanmaydi [MK, III, 240]; *Küč aldın kirsä, törü tünlüktän čiqar* – zulm eshikdan kirsä, insof, adolat tuynukdan chiqadi [MK, II, 25]. Rabg'uziy qissasi tilida esa *törä* fonetik shakli «urf-odat», «qonun-qoida» semalarini bildirgan: *Bu qonuq tutmaq töräsini xalqqa qođğan İbrāhim* [QR, 37v14]; *Aydi: elčini öldürmək pādšāhlar töräsi ermäs* [QR, 230r20]. Bu leksemaning «Xazoyin ul-maoniy» devonida kuzatilishi uning eski o'zbek tilida ham istifoda etilganini ko'rsatadi:

Törä birlä baş urub tut xanğa,

Sarqutın ber meni besāmānğa [ANATIL, III, 270].

Hozirda mazkur so'z *ko'chma ma'noda* to'ra (rasmiyatchi), to'ralarcha (rasmiyatparastlarga xos ravishda), to'rachilik (ishga rasmiyatchilik bilan qarash) kabi atamalar tarkibida saqlanib qolgan [O'TIL, IV, 258].

Qağan so'zi Kul tigin bitigtoshida «hukmdor, davlat boshlig'i» ma'nosida, shuningdek, kishi ismlari tarkibida qayd etilgan: *Tängri yarlıqaduqın üçün özüm qutım bar üçün qağan olurtum* – Tangri yorlaqagani uchun, baxtim borligi uchun xoqon bo'ldim [KTb, 9]; *Bilgä qağan, Baz qağan, Bumın qağan*. Ayni paytda, yodnomada kalima **qağanliğ** (xoqonli), **qağansıra** (hukmdorini yo'qotmoq) kabi leksemalarning yasalişida o'zak sifatida ishtirok etgan. Atama Turfon matnlarida **qağan qan** (oliy hukmdor) juft so'zining yuzaga kelishiga asos vazifasini o'tagan bo'lsa, «O'g'uznoma» dostonida o'zining dastlabki shakli va ma'nosida kelgan [DTS, 405]. Eski turkiy tilning dastlabki manbalarida *xağan* [MK, III, 172], *xan* [DTS, 636] fonetik variantlari uchraydi: *xan süsin qurdi* – shoh askarini to'pladi, tartibga soldi [MK, II, 14]. Demak, ma'lum bo'ladiki, **q** undoshining **x** tovushiga o'tishi hodisasi XI asrda yuz bergan.

Xan istilohi To'nyuquq bitigtoshida **qan** shaklida «hukmdor», «Oltun yoruq» asarida «yo'lboshchi, boshliq» ma'nolarini anglatgan:

Tāhri anča temiš erinč, qan bertim, qanniñ qodup içikdiñä – Tangri shunday dedi: men senga xon berdim, sen esa o'z xoningni tashlab, o'zgaga bo'ysunding; *Ötrü* tāhri qanī Xormuzta tāhri tāhri Burxanqa inča tep ötüğ ötünti – Shundan keyin ma'budalar yo'l boshchisi tangri Xormuzta tangrilar tangrisi Burxandan iltimos qildi [DTS, 417]. O'rganilayotgan atama «Qutadg'u bilig» hamda «Devon»da o'zining asl ma'nosida ishlatilgan: *Bu Tawğaç Qara Buğra xanlar xanī* [DTS, 636]; *Xandan basut* (yordam) *tilärlär* [I, 427]. Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida ham ayni semada qo'llangan: *Māil qildī burun Xitā xanī bay' qılmaq berib bahā anī* [III, 412]. Mahmud Koshg'ariy **xan** so'zini quyidagicha izohlaydi: *Afrosiyobning bolalari ham xon deb yuritiladi. Afrosiyob xoqondir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor* [MK, III, 172]. L. Budagov lug'atida **qan** mo'g'ulcha **qaan** so'zining qisqargan shakli sifatida qayd etiladi [SSTTN, I, 527]. Ayrim turkologlar atama **qağan** leksemasining qisqarishi natijasida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari suradi [Бартольд 1963, 604; Баскаков 1976, 226]. Shuningdek, mazkur leksema xitoy tilidagi ke «buyuk, ulug'» +kuan «hukmdor» terminidan olinganligi haqida ham ko'z qarash mavjud [Дадабоев, Хамидов, Холманова 2007, 34; Менгес 1979, 110-111; Баскаков 1976, 225; Немец 1976, 299].

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da **tarxan** – soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan; imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug', zot yoki mansabdor) tarzida ta'riflanib, mo'g'ulchaga nisbat berilgan. Ushbu atama turkiy bo'lib, dastlab Kul tigin yodnomasida **tarqat** (bu yerda -t ko'plik qo'shimchasi hisoblanadi) shaklida unvonni ifodalab, ko'plik tarzida tarxonlarga nisbatan qo'llangan: *yïrya tarqat buyruq bāglār* – chapdagi tarxonlar, buyruq-vazir beklar [KTb, 1]. Moniy yozuvi yodgorliklarida *tarqan* so'zining fonetik varianti kelgan bo'lsa, Tonyuquq bitigida **apa tarqan** birikmasi bosh qo'mondonga nisbatan ishlatilgan [DTS, 538]. “Devonu lug'otit turk” asarida *tarxan* “bek”ni anglatgan. Ayni paytda, Mahmud Koshg'ariy uning islomiyatdan oldin arg'ular tilida kishi ismi sifatida qo'llanganini uqtirib o'tadi [MK, I, 409]. Abulg'oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida quyidagi qaydlarni o'qiymiz: *Bu ikkisini tarxon qildi. Tarxonning ma'nosi bu turur kim, ul kishidin hech nimarsa olmag'aylar. Har qachon xon eshikina kelsa hech kishi man' qilmag'ay, o'zi kirgay va o'zi chiqq'ay. Agar gunoh ish qilsa, to'qquzg'acha so'rmag'aylar. Andin so'ng so'rg'aylar. To to'qquz orqa bo'lg'uncha shundoq bo'lg'ay* [SHT, 41]. Leksemaning *darxon* fonetik varianti xalq og'zaki ijodi, dostonlarda qo'llanishda

bo'lganini ko'ramiz: *Endi senga timsol aytay bir alvon, Men ketgancha, o'zing Chambilda darxon*. "Malikayi ayyor" [O'TIL, I, 234].

Yenisey bitiglarida "mohir mergan"ni bildirgan **alp** so'zi Kul tigin yodnomasida "jasur, qo'rqmas", "qahramon" semalarida, uning **alpağu** shakli esa "qahramon" ma'nosida qo'llangan: *bilgä qağan ärmis alp qağan ärmis* – dono xoqon ermish, jasur xoqon ekan [KTb, 3]; *alp är biziñä tägmiş ärti* – alp er bizga hujum qilgan edi [KTb, 3]; *bir oğuş alpağu on ärig Toña tägin yoğinta ägirib olurtimiz* – bir qavm qahramon o'n erni To'nga tegin azasida qurshab olib o'ldirdik [KTb, 47]. Alp Turfon matnlarida "qahramon", moniy yozuv yodgorliklarida "jasur, mard", "jasorat, jur'at" semalarida kelgan: *Alpın erdämin el tutmiş* – davlatning qoidasi mardlik va jasorat bilan [DTS, 36]. Mahmud Koshg'ariyning lug'atida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan:

- 1) "qahramon" [MK, I, 77];
- 2) "jasur, botir" [MK, I, 192];
- 3) "kishi ismi": *Alp Er Toña, Alp tegin* [MK, I, 77; MK, I, 391].

"Tafsir", Mahmud ibn Saroyining "Nahjul farodis" hamda "Qisasi Rabg'uziy" asarlarida atamaning faqatgina "qahramon" ma'nosi ko'zga tashlanadi: *Omär... är ärdi yüräklig ayyar alp ärdi* [26b7]; *Meni alp bahatur tesünlär* [NF, 203b8]; *Alp yüräklik küçünä küwänür erdi* [QR, 61v14]. Tahlillar natijasida shu narsa oydinlashdiki, keyingi davrlarga kelib, leksemaning "qahramon" semasi saqlanib qolgan. Dastlabki hamda hosila ma'nolar esa iste'moldan chiqib ketgan. Bu termin eski o'zbek tili manbalari, ya'ni Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida *Alpxan* [SHT, 68] antroponimi, hozirda xalq og'zaki ijodi namunalari, maqol va dostonlarda, shuningdek, *Alpon, Alpomish* kabi kishi ismlari asosida saqlanib qolgan.

"Devonu lug'otit turk"da Kul tigin bitigtoshida keltirib o'tilgan *alpağuning alpağut* [QR, 132r1] fonetik varianti "botirlar" ma'nosida voqelangan:

Buzraj yämä qudurdi,

Alpağutın azurdi – Yaboqular boshlig'i Buzraj yana quturdi, botirlarini tanlab oldi [MK, I, 161]. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida *alpağut* botir, jasurga nisbatan ishlatilgan, ya'ni birlikda qo'llangan. Aslida *alpağut* so'zidagi -t qo'shimchasi ko'plikni ifodalaydi. Anglashiladiki, XIV asrga kelib ushbu affiks o'z xususiyatini yo'qotib, o'zakning tarkibiga singib ketgan.

Kul tigin yodnomasida "tilla" ma'nosi **altun** atamasi yordamida berilgan: *Altun kümüş kergäksiz kälürti* – oltin, kumush

ortiqcha keltirdi [KTb, 52]. Eski turkiy tilning ilk yodnomalaridan sanalgan "Devon"da "tilla" [MK, I,142]; "tilla tanga": *Ol meniñ birlä bir altunda ağışdı* – narxni bir oltinga oshirish uchun u men bilan bahslashdi [MK, I, 194]; "pok, qimmatli" [ko'chma; MK, I, 101] semalari aks etgan. "Tafsir" va XIV asr Xorazm manbalarida so'zning dastlabki ikki semasi qo'llanishda bo'lgan: *Biz sänkä üküş mäl beräliñ altun kümüş... tedilär* [139b13]; *Minj alltunı bar ärdi* [136b10]; *Taş ornığa tapğaysen altun* [XSh,11a6]; *Yana minj altun čiqardı* [NF,213a14]. "Qisasi Rabg'uziy" obidasida leksema quyidagi ma'nolarni kasb etgan: a) "tilla": *Taqi xazinada ne kim altun, kümüş bar erdi barçasın qačirlarğa yüklätip čiqartdı* (109v18); b) "tilla tanga, pul": *...Taqi yüz minj altun keltürgil* (46v16); v) "tilla bilan qoplangan": *Altun birlä bezäklik özi taxt üzä olturur* (125v9). Eski o'zbek tilida atamaning "oltin", "tilla tanga, pul birligi", "qimmatbaho, bebaho" singari semalari qo'llanishda bo'lganini "Vaqfiya", "Munshaot" asarlaridan bilib olish mumkin: *Tabaqčığa yilliq naqda ikki yüz altun; Safar korai gudāz va sözdür va ul gudāz va söz erniñ vujudı altunığa iyārandozdur* [ANATIL, II, 519]. Ko'rinadiki, *altun* so'zining "tilla" sememasi denotativ sema sanaladi, chunki qolgan ma'nolar undan o'sib chiqqan. Sevortyanning fikricha, *altun* – *altın* qo'shma so'z bo'lib, al "qizil", *tun* (<*tonj*, *ton*) "mis" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgan [ESS, I, 142].

Turfon matnlarida "yo'qsil, bechora odam" [DTS, 147] ma'nosida ishlatilgan čığay Kul tigin bitigtoshida čığany shaklida ikki semani ifodalash uchun xizmat qilgan: "kambag'al": *yoq čığany bodunuğ qop qoburtdım* – yo'q, qashshoq xalqni yaxshilab oyoqqa turg'azdim [KTb, 10]; "qashshoq odam": čığanyığ bay qilti – kambag'alni boy qildi [KTb, 16]. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida čığay "yo'qsil, bechora odam", "kambag'allik" ma'nolarida kelgan: *Qamuğ ezgü esiz čığay baylıqım bayatdın körür men* – ko'rgan hamma yaxshilik va yomonliklarimni, faqirlik va boyligimni tangridan deb bilaman [DTS, 147]. "Devonu lug'otit turk"da čığan va čığay fonetik shakllari istifoda etilgan: turklar kambag'alni čığay desalar, arg'ular čığan deydilar [MK, I, 67]; *Köñül kimin bolsa qalı, Qılsa küçün bolmas anı toq bay* – ko'ngli och, yo'qsul bo'lgan kishini kuch bilan to'q, boy qilish mumkin emas [MK, III, 257]. Čığayning XIV asr va eski o'zbek tilida iste'molda bo'lganini Rabg'uziy [QR, 128v21] va Alisher Navoiy asarlaridan bilib olish mumkin:

Tindurur bayu čığaynnı hākimi ravšan zamir,

Yarutur ābād ilā vayrānanı mehri munir [ANATIL, III, 472].

XIV asr manbasi sanalgan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy"

asarida ishlatilgan **qul** (qul, xizmatkor; 76v5), **kün** (cho'ri, joriya; 41r1) so'zlari dastavval Kul tigin yodnomasida uchraydi: *bāglik urī oğluñ qul bolti, silik qiz oğluñ kün bolti* – bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, yetuk, chiroyli qiz farzanding cho'ri bo'ldi [KTb, 24]. Shu bilan birga, har ikkala atama bitigtoshda **qulad-** (qulga aylantirmoq), **künād-** (joriyaga aylantirmoq) fe'llarining shakllanishiga asos bo'lgan: *qağansiramīs bodunuğ, künādmis, quladmīs bodunuğ* – xoqonini yo'qotgan xalqni, cho'riga aylangan, qulga aylangan xalqni [KTb, 13]. Mahmud Koshg'ariy *kün*ni o'zining dastlabki ma'nosida qo'llagan bo'lsa, *qulga* esa "qul" [MK, I, 324], "keksa", "qul, banda" ma'nolarini yuklagan va buni misollar bilan dalillagan: *qul sawī qalmas* – keksalarning so'zi, nasihati bekor ketmaydi [MK, I, 387]; *qul tanrigā bütti* – qul, banda xudoning borligiga iqror bo'ldi [MK, II, 339]. *Kün* eski o'zbek adabiy tilida ishlatilmasa-da, *qul* "qul", "mute bo'lmoq, boylik ketidan quvmoq", "qul, banda" semalarida qo'llanishda davom etgan [ANATIL, IV, 75].

Arqış Kul tigin bitigtoshida "karvon", Turfon matnlarida "xabarchi, chopar" semalarida qo'llanishda bo'lgan: *...arqış tirkiş isar* – karvon yuborib turilsa [KTb, 8]; *Ötrü ol arqış...* – so'ngra ul xabarchi... [DTS, 54]. "Qutadg'u bilig" asarida dastlabki ma'no uchraydi: *Azun tezgünür eldä arqış yurip* – karvonlar ellarda yurib jahon kezaдилar [DTS, 54]. "Devonu lug'otit turk" asarida "karvon", "chopar", "maktub, noma" ma'nolarini ifodalagan: *Yīraq yer sawīn arqışi keltürür* – uzoq yer xabarini karvon keltirar [MK, I, 122]; *Aniñ arqışi keldi* – uning chopari keldi [MK, I, 123]; "Qisasi Rabg'uziy"da tekshirilayotgan so'zning dastlabki ma'nosi kuzatiladi: *Malik Za'r qopdi, arqış ara kirdi on säkiz Misr yarmaqi buldi* [QR, 73r13]. Shu bilan birga, qissada forschalar **karwān** sinonimi ham uchraydi: *Mavlā ta'alā yarligi birlā yel qopti karwān yol yitürdi* [QR, 74r2]. Mazkur o'zlashma birinchi marta "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan: *Yeti aflāk karwāni* [DTS, 289]. Alisher Navoiy asarlarida *arqış* qo'llanmasa-da, *karwān* leksemasi faol ishtirok etgan:

Xojaning bo'yla ibtilosi chog'i,

Ko'runub karvon qarosi dog'i (ANATIL, II, 98).

Ma'lum bo'ladiki, XV asrga kelib *arqış* atamasi iste'moldan chiqqan, uning o'rnini esa *karwān* o'zlashmasi egallagan.

Kor (ye) oti "ish, mehnat, vazifa" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'z tarkibidagi *o* tovushi o'zbek tilida *a* tovushiga almashtirilgan. **Karwān** so'zidagi ikkinchi qism "kuzatuvchi" ma'nosini bildiradigan *-bon* qo'shimchasi bo'lib, tojik tilida bu qo'shimcha tarkibidagi *b* tovushi *v* tovushiga almashtirilgan; o'zbek

tiliga shu shaklida olingan. Asli "boshqaruvchi kishi" ma'nosini ifodalagan bu ot keyinchalik "uzoq yerlarga yuk tashuvchi tuyalar va ularga qaraydigan shaxslar" ma'nosini anglatadigan bo'lgan [O'TEL, III, 119].

Xulosa

Kul tigin bitigi tilida ijtimoiy-siyosiy leksikaga oid lug'aviy birliklar salmoqli o'rin tutib, ularda o'sha davr xalqining turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, davlat tutumi, boshqaruv tizimi o'z aksini topgan. Qolaversa, voqealar rivoji, davri, siyosiy jarayonlar, madaniy-maishiy hayotdagi o'zgarishlarga, shuningdek, davlatchilik asoslari va tarixiy manbalarga, so'zlarning kontekstdagi ma'nolariga alohida e'tibor qaratish mazkur soha leksikasi semantik taraqqiyotini aniqlashda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, tahlil natijalari o'laroq, quyidagilarni aytish mumkin:

birinchidan, Kul tigin bitigida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy leksik birliklarning ko'pchiligi monosemantik so'zlar hisoblanib, ko'p ma'noli kalimalar ham o'z o'rniga ega;

ikkinchidan, oradan qariyb o'n uch asr vaqt o'tishiga qaramasdan, ayrim so'zlar ayni shakl va ma'noda, ba'zilari juz'iy o'zgartirishlar bilan yetib kelgan, shuningdek, bugun o'zbek tili, qardosh turkiy tillar va o'zbek shevalarida qo'llanishda davom etayotgan atamalar ham yo'q emas;

uchinchidan, ko'hna so'zlarning tadqiq etilishi ularning qayta tiklanishini, monografik tadqiqotlar hamda turli tarixiy va zamonaviy lug'atlardan joy olishini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, muayyan istilohlar iste'moldan chiqqan, arxaik holatga ko'chgan, bu esa tabiiy jarayon. Qolaversa, ko'k turk yozuvi obidalari turkiy tillar tarixiy leksikologiyasini yaratishda, bu tillar uchun qadimda mushtarak bo'lgan xususiyatlarni belgilashda, ularning keyingi taraqqiyot bosqichlarini yoritishda, uni chuqur ilmiy tahlil qilishda qimmatli manba sanaladi.

Uzun so'zning qisqasi, ko'k turk manbalarida istifoda etilgan leksemalarni o'rganish ko'hna so'zlarning qo'llanish doirasi, ma'no ko'lamini aniqlash, qadimiy atamalarni tiklash barobarida bugungi globallashuv davrida chetdan kirib kelayotgan o'zlashmalarning o'zbekcha muqobillarini topishda ham katta o'rin tutadi.

Qisqartmalar, adabiyotlar

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983–1985. I-IV. Тошкент: Фан.

At-tuhfa – Изысканный дар тюркскому языку: Грамматический

- трактат XIV в на арабском языке.* 1978. Введение, лексико-грамматический очерк, перевод, грамматический указател. Э.И. Фазылова и М.Т. Зияевой. Ташкент.
- DTS – Древнетюркский словарь.* 1969. Ленинград: Наука.
- Jamoliddin Turkiy – Файзуллаева Ш.А.* 1969. *Исследование языка памятника XIV в. "Китабу булғат ал-муштақ фи луғат ат-турк ва-л қифчақ" Джамалад – Дина ат-Турки:* Дисс. канд. филол. наук. Ташкент.
- IRTLYA – Историческое развитие лексики тюрских языков.* 1961. Москва: Изд-во АН СССР.
- КТб – Рустамий А.* 2022. *Сайланма.* 2-жилд. Туркий тил махзани. Тошкент: Zilol buloq.
- МК – Махмуд Қошғарий.* 1960-1963. *Девону луғотит-турк.* Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. Тошкент: Фан.
- NF – Нахджул – фарадис.* 1966-1971. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. Ташкент: Фан.
- RSL – Радлов В.В.* 1893-1911. *Опыт словаря тюркских наречий.* I-IV. СПб.
- Tafsir – Бороков А.К.* 1963. *Лексика среднеазиатского тefsира XII–XIII вв.* Москва: Изд-во восточной лит-ры.
- To'n – Рустамий А.* 2022. *Сайланма.* 2-жилд. Туркий тил махзани. Тошкент: Zilol buloq.
- SHT – Абулғозий.* 1992. *Шажарайи турк.* Тошкент: Чўлпон.
- ESS – 1) Севортян Э.В.* 1974. *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные.* Москва: Наука.
- 2) Севортян Э.В. 1978. *Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основа на букву "Б".* Москва: Наука.
- 3) Севортян Э.В. 1980. *Этимологические основы на буквы "В", "Г", "Д".* Москва: Наука.
- O'I – Бегматов Э.* 2006-2008. *Ўзбек исмлари.* Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* 2007. I-V. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- O'XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати.* 1971. Тошкент: Фан.
- QR – 1) Рабғузий. Қиссаси Рабғузий.* 1990-1991. I-II Тошкент: Ёзувчи.
- 2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. 1997. *Kisasul-Enbiya.* II. Dizin. Aysu Ata. Ankara.
- Бартольд, В. В. 1963. *Сочинения.* Т.П. Ч. I. Москва.
- Баскаков, А. Н. 1976. "Тюркимы-социальная терминология в "Слове о полку Игореве". *Turkologica.* К 70 летию акад. А.Н. Кононова. Москва.
- Дадабоев, Ҳ., Ҳамидов, З., Холманова, З. 2007. *Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.* Тошкент: Фан.

- Дадабаев Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.* Тошкент: Ёзувчи.
- Менгес, К. 1979. *Восточные элементы в «Слове о полку Игореве».* Ленинград.
- Немет, Ю. 1976. "К вопросу об аварях". *Turcologica*, 299.
- Содиқов, Қ. 2020. *Эски ўзбек адабий тили.* Тошкент: Akademnashr.
- Содиқов, Қ. 2006. *Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши.* ТошДШИ.
- Қораев, С. 2005. *Ўзбекистон вилоятлари топонимлари.* Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Socio-political vocabulary in the epitaph of Kul-tigin

Bakhtiyor Abdushukurov¹

Abstract

In this article, the semantics of socio-political lexical units campaigns are analyzed. These words had arisen as a result of social system, labor processes of society members, their mutual relations, active involvement in society affairs, international relations, military.

Social and political terms of Kultigin inscription are compared with the political terms used in such sources as Turfon texts, memoirs "Oltun yaruq", "Irq bitigi", also in the sources of old Turkish language such as "Qutadgu bilig", "Devonu lughotit turk", "Khibatul khakayik", "Qisasi Rabghuziy", as well as, with the political terms used in the old Uzbek literary language through samples of the Alisher Navoi's works, and the texts of "Boburnoma", "Shajarayi Turk".

As a result of this study, the process of the language development is described through change and transfer of these terms to the modern literary language; change of the status of the lexemes from high frequent one to archaic one being replaced with the borrowed lexeme, and the role of different factors in this change.

Key words: *language history, Turkic languages, runic inscriptions, lexical layer, Kul tigin, archaic notes, Turfon texts, written sources, internal*

¹Bakhtiyor B. Abdushukurov – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdushukurov@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6964-0714

For citation: Abdushukurov, B. B. 2024. "Socio-political vocabulary in the epitaph of Kul-tigin". *Golden Scripts* 1: 143 – 158.

factor, extralinguistic factor, old Turkic language, old Uzbek literary language.

References

- ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV. Toshkent: Fan, 1983-1985.
- At-tuhfa – *Iziskanniy dar tyurkskomu yaziku: Grammaticheskiy traktat XIV v na arabskom yazike*. 1978. Vvedenie, leksiko-grammaticheskiy ocherk, perevod, grammaticheskiy ukazatel. E.I. Fazilova i M.T. Ziyaevoy. Tashkent.
- DTS – *Drevnetiyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad: Nauka.
- Jamoliddin Turkiy – Fayzullaeva Sh.A. 1969. *Issledovanie yazika pamyatnika XIV v. "Kitabu bulg'at al-mushtaq fi lug'at at-turk va-l qifchaq" Djamalad – Dina at-Turki*: Diss.kand. filol.nauk. Tashkent.
- IRTLYA – *Istoricheskoe razvitie leksiki tyurskix yazikov*. 1961. Moskva: Izd-vo AN SSR.
- KTb – Rustamiy A. 2022. *Saylanma*. 2-jild. *Turkiy til maxzani*. Toshkent: Zilol buloq.
- MK – Mahmud Qoshg'ariy. 1960-1963. *Devonu lug'otit-turk*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M. Mutallibov. T. I-III. Toshkent: Fan.
- NF – *Naxdjul – faradis*. 1966-1971. Fazyllov E. *Starouzbekskiy yazik. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka*. T. I-II. Tashkent: Fan.
- RSL – Radlov V.V. 1893-1911. *Opit slovary tyurkskix narechiy*. I-IV. SPB.
- Tafsir – Borokov A.K. 1963. *Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XIII vv*. Moskva: Izd-vo vostochnoy lit-ry.
- To'n – Rustamiy A. 2022. *Saylanma*. 2-jild. *Turkiy til maxzani*. Toshkent: Zilol buloq.
- SHT – Abulg'oziy. 1992. *Shajarayi turk*. Toshkent: Cho'lpon.
- ESS – 1) Sevortyan E. V. 1974. *Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnovy na glasnnye*. Moskva: Nauka.
- 2) Sevortyan E. V. 1978. *Etimologicheskie slovar tyurkskix yazikov: Obshetyurkskie i mejtyurkskie osnova na bukvu "B"*. Moskva: Nauka.
- 3) Sevortyan E.V. 1980. *Etimologicheskie osnovy na bukvu "V", "G", "D"*. Moskva: Nauka.
- O'I – Begmatov E. 2006-2008. *O'zbek ismlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- O'TIL – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2007. I-V. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- O'XSHL – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. 1971. Toshkent: Fan.
- QR – 1) Rabg'uziy. *Qissasi Rabg'uziy*. 1990-1991. I-II Toshkent: Yozuvchi.
- 2) Nasirud-din bin burhayud-din din Rabquz. 1997. *Kisasul-Enbiya*. II.

- Dizin. Aysu Ata. Ankara.
- Bartold, V.V. 1963. *Sochineniya*. T.II. Ch. I. Moskva.
- Baskakov, A.N. 1976. "Tyurkimi-sotsialnaya terminologiya v "Slove o polku Igoreve". *Turkologica*. K 70 letiyu akad. A.N. Kononova. Moskva.
- Dadaboev, H., Hamidov, Z., Xolmanova, Z. 2007. *O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. Toshkent: Fan.
- Dadabaev X. 1991. *Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI-XIV vv.* Toshkent: Yozuvchi.
- Menges, K. 1979. *Vostochnie elementi v «Slove o polku Igoreve»*. Leningrad.
- Nemet, Y. 1976. "K voprosu ob avarax". *Turcologica*, 299.
- Sodiqov, Q. 2020. *Eski o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Akademnashr.
- Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi*. ToshDShI.
- Qoraev, S. 2005. *O'zbekiston viloyatlari toponimlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

"Oltin bitiglar – Golden Scripts" jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo'ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar yil davomida o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.

Barcha qo'lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

100–150 so'zdan iborat o'zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o'ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:
[Xondamir, Makorim, 17²]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]
[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 - 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari, DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 - 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62